O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KECHKI TA’LIM VA MAGISTRATURA

FAKULTETI

UDK:658.562

ALPOMISHEV IBROHIM UBAYDULLA O‘G‘LI

YANGI O’ZBEKISTON IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI TAMINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mutaxassislik: 70310102 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD, dots. Xursandov K.M.

TOSHKENT-2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyhot univertsiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar: **PhD, dots.Xursandov K.M.**

Kafedra mudiri: **i.f.n., prof. X. Asatullayev**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti

dekani: **DSc., prof. J. Karimqulov**

Men, Alpomishev Ibrohim Uboydulla o'g'li
ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda magistirlik disertatsiya ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

"22" may 2025 yil Alpomishov.I

TOShKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI BAYONNOMASI

Toshkent shahar **2025 yil "11" апрель**

Iqtisodiyot fakul'teti 2-kurs 70310102-"Iqtisodiyot" tarmoqlar va sohalar mutaxassisligi MEKP-03 guruhi magistranti Алламшов Шохжон Убайдулла ўғли ning "Янги ўзбекистон иқтисодиёти рақобатбардошлигини таъминлаш механизмларини такомиллаштириш" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

Диссертациянинг режа саволлари мавзу моҳиятини тўлиқ очиб бермайди.
Диссертацияда кўплаб имло, статистик ва техник хатолар мавжуд.
Манбалар фойдаланилган адабиётлар рўйхати талаб даражасида эмас.

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga **tavsiya etiladi/tavsiya etilmaydi**) Тавсия этилади.

Komissiya raisi: Ботуллаев К.С.

Komissiya a'zolari: Расулев А.Ф.
Одилова Д.Б.
Шарипов Ф.Б
Шаманов М.А

Izoh:

1. Magistrlik dissertatsiya dastlabki himoyasi talab qilingan xujjatlar to'liq rasmiylashtirilgan va taqdim etilgan holdagina amalga oshiriladi.

Annotatsiya

Mazkur magisrlik dissertatsiya ishining asosiy maqsadi — Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining global va mintaqaviy bozor sharoitlarida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va zamonaviy ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida ularni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Shuningdek, tadqiqotda xalqaro tajribani o‘rganish orqali milliy iqtisodiy sharoitga mos bo‘lgan raqobat strategiyasini ishlab chiqish, iqtisodiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladigan mexanizmlarni asoslab berish ko‘zda tutiladi.Ushbu maqsad doirasida O‘zbekistonning raqobatbardoshlik darajasiga ta’sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilinadi, mavjud ichki va tashqi chaqiriqlarga mos strategik yondashuvlar ishlab chiqiladi, raqobat muhitini rivojlantirishga xizmat qiluvchi institutlar faoliyati o‘rganiladi va takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlanadi.

Kalit so’zlar: Raqobatbardoshlik, Yangi O‘zbekiston, Xalqaro integratsiyalashuv, global, eksport-import tendensiya.

Abstract

The main goal of this master's thesis is to conduct a thorough analysis of the mechanisms aimed at increasing the competitiveness of the economy of New Uzbekistan in global and regional market conditions, identify existing problems and develop ways to improve them based on modern scientific and practical approaches. The study also aims to develop a competitive strategy that is appropriate for the national economic conditions by studying international experience, and to substantiate mechanisms that serve to ensure economic stability and innovative development. Within the framework of this goal, factors affecting the level of competitiveness of Uzbekistan are systematically analyzed, strategic approaches are developed in accordance with existing internal and external challenges, the activities of institutions serving the development of the competitive environment are studied, and areas for improvement are identified.

Keywords: Competitiveness, New Uzbekistan, International integration, global, export-import trend.

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB	**MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**	13
1.1.	Raqobatbardoshlik kategoriyasining mohiyati va konseptual asoslari	13
1.2.	Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi omillar va baholash tizimi ko'rsatkichlari	19
1.3.	Milliy iqtisodiyotda eksport-import tendensiyasi va istiqboldagi vazifalar	25
	Birinchi bob bo'yicha xulosa	34
II BOB	**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINING HOZIRGI DAVRDAGI HOLATI**	**35**
2.1.	Milliy iqtisodiyotning tarkibi va uni raqobatbardoshligi tahlili	35
2.2.	Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar sharoitida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning tizimli rivojlanish xususiyatlari	48
2.3.	Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari	59
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	75
III BOB	**YANGI O'ZBEKISTONNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLARI**	77
3.1.	Milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo'naltirilgan investitsion faollikni ta'minlash	77
3.2.	O'zbekistonda innovatsion klasterlar faoliyatini rivojlantish orqali sanoat korxonalari eksport raqobatbardoshligini oshirish	86
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa	93
	Xulosa va takliflar	94
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	97

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashuv, raqobatning kuchayishi, ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi tezkor yutuqlar har bir davlatdan o‘z iqtisodiy siyosatini qayta ko‘rib chiqishni, milliy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta’minlaydigan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Xususan, raqobatbardoshlik – har qanday iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etish va ichki bozorni himoya qilishning muhim sharti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar yo‘lidan borib, bozor mexanizmlariga asoslangan, raqobatga tayangan ochiq iqtisodiyotni shakllantirishga intildi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar, Prezident tashabbusi bilan qabul qilingan “O‘zbekiston–2030” strategik dasturi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va xususiy sektorni rivojlantirish borasida olib borilayotgan siyosat milliy iqtisodiyotni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, xalqaro reytinglar va baholash tizimlarida (WEF Global Competitiveness Index, World Bank Doing Business Index, UNCTAD Investment Reports va boshqalar) O‘zbekiston iqtisodiyoti hali to‘liq raqobatbardosh modelga ega emasligini ko‘rsatmoqda. Raqobat muhitining sustligi, innovatsion rivojlanishning pastligi, byurokratik to‘siqlar, infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi va kadrlar salohiyatining pastligi kabi omillar ushbu yo‘nalishda chuqur tahlil va tizimli islohotlarni talab etadi. Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotda hali hamda xomashyo eksportiga bog‘liqlik yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bunday model esa uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardoshlikni ta’minlay olmaydi. Shu sababli, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish, eksport geografiyasini kengaytirish va ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish bugungi kunning asosiy talablari bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish jarayonlari, Yevroosiyo iqtisodiy makoni va boshqa mintaqaviy integratsion tuzilmalar bilan iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning kengayishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta’minlashda